

TARJIMANING BA'ZI GRAMMATIK MUOMMOLARI.

Nabiyeva G.A

O'qituvchi Andijon davlat chet tillar instituti.

Annotatsiya. *Tarjimada tilning grammatik xususiyatlari va shakllari kuchirilmaydi, balki, bu tilning grammatik xususiyatlari asosida bayon qilingan fikr boshqa tilning grammatik qonuniyatlari asosida qayta tiklanadi*

Tayanch so'zlar: *Tarjima, grammatik xususiyatlar, rod (jins) kategoriyasini, mos kelmasligi, olmosh-shaxs kategoriyasi.*

Abstract. *In translation, the grammatical features and forms of the language are not strengthened, but the idea expressed on the basis of the grammatical features of this language is revived on the basis of the grammatical laws of another language.*

Xar-bir tilning o'ziga xos grammatik xususiyatlari borligi bir tildan boshqa tilga tarjima qilish ishini mushkullashtiradigan asosiy faktorlardan biridir

Tarjimada tilning grammatik xususiyatlari va shakllari kuchirilmaydi, balki, bu tilning grammatik xususiyatlari asosida bayon qilingan fikr boshqa tilning grammatik qonuniyatlari asosida qayta tiklanadi. Formal grammatika nuqtai nazaridan aniq tarjima bo'lmaydi, chunki tillarning grammatik shakllari orasida absalyut o'xshashlik bo'lishi mumkin emas. Shuning uchun tarjimada grammatik aniqlikdan chekinish xususiy va tasodifiy emas, balki umumiy qonuniy hodisadir.

Filologiya fanlari doktori A.V.Fyodorov asl nusxa, original til bilan tarjima til o'rtasida yuz beradigan grammatik tafovutni uch xil ko'rinishini qayd etadi:

1. Asl nusxa tilida asar tarjima kilinayotgan tilida bo'lmagan grammatik elementga ega bo'ladi.

2. Asar tarjima qilinayotgan asl nusxa tilida bo'lmagan, lekin tarjima jarayonida ishlatiladigan grammatik elementlar mavjud.

3. Asl nusxa tilida mavjud elementlar bor- ammo ular o'z funksiyalari tomonidan farq qiladi.

Dunyodagi ko'pchilik tillarda rod, jins kategoriyalarining mavjudligi turkiy tillarda fin, gruzin, arman, va boshqa shu kabi tillarda bunday hususiyat yo'qligi ayniqsa tarjimachilik ishida katta qiyinchilik tug'diradi.

Rod kategoriyasiga ega bo'lgan tildan bunday grammatik hususiyatga ega bo'lmagan tilga tarjima qilishda qiyinchilik tug'dirishi o'z-o'zidan ravshan. Ammo rod kategoriyasiga ega bo'lgan tillarning xammasiga xam bu hususiyat aynan muvofik kelmaydi. Masalan: solnse so'zi rus tilida sredniy rodga kiritilsa, nemis tilida jenskiy rodga, franso'z tilida esa mujskoy rodga xisoblanadi, yoki rus tilida lojka so'zi jenskiy rodga bo'lsa,

nemis tilida mujskoy rodga kiritiladi. Aksincha rus tilida "stul" mujkoy rodga xisoblansa, ispan tilida jenskiy rodga talqin qilinadi.

Rus adabiyotidagi badiiy tarjimani rod kategoriyasining aks ettiruvchi mashxur bir misol bor. Ulug' nemis shoiri Xaynrix Xaynening "Qarag'ay" bilan "Palma" nomli she'rida o'z ma'shuqasi palmadan abadiy judo bo'lgan oshiq karag'ay darashtini bildiruvchi ikkita so'z bor. Biri jenskiy rodga, ikkichisi esa mujskoy rodga. O'zoq shimolda koya toshlar ustida tanxo qolgan oshiq Der Fichtenfaum" o'z ma'shuqasi " Die Palme" ning visoliga etish orzusida ox uradi.

Bu ajoyib she'rni rus tiliga tarjima qilar ekan, M.Yu.Lermontovning oldida bir muammo turar edi: rus tilida sosna /qarag'ay/ so'zi xam, palma xam jenskiy roddadir. Demak bu ikki so'z yigit bilan "qiz" obrazini o'zida mujassamlashtira olmaydi. Shu sababli Lermontov tarjimasida she'rning mazmuni o'zgargan:

"Odna i grustna, na utyose goryuchem, pechalnaya palma rastyot..." "Cho'g'day qoya o'zra tanxo va g'arib, Xurmo o'sar qayg'u g'am bilan..." Buning natijasida oshiq ma'shuqasini o'rnini dugonalar muxabbati, ular o'rtasidagi xijron azobi egallagan.

Mutaxassis botaniklarning fikricha F.I.Tyutchev tarjimasida yo'l qo'yilgan:"kedr" shimolda o'smaydigan janub daraxti bo'lib, faqat dengizda uchraydi. Shimolda esa "kedr" emas, balki kedrovaya sosna-«kedr» karagay o'sadi. Chet mamlakatlardagi shaxarlarning qaysi rodga ekanlagani aniqlash xam mushkulliklar tug'diradi. Masalan, «Avstriya» respublikasining poytaxti «Vena» rus tilida jenskiy rodga xisoblansa, avstriyaliklarning o'zlari uni sredniy rodga yuritadilar, das Wien.

Shuningdek, «Rim» shaxri rus tilida mujskoy rodga sanalsa, italiyaliklar uni «Roma» deb talaffuz etishadi va jenskiy rodga talkin kilinadi. Shaxar va mamlakat nomlarining grammatik xususiyatlari asosida yaratilgan uslubini xam tarjimada aynan aks ettirib bo'lmaydi.

Ingliz tilida xam so'zning qaysi rodga ta'luqli ekanini ko'rsatuvchi maxsus grammatik belgi yo'q. Ammo unda mujskoy, jenskiy va sredniy rodlarni aks ettiruvchi he /on/ She /ona/ it /ono/ olmoshlar bor. Masalan, ingliz rus tilida /Takani/ on /kozyol/, urg'ochi echkini esa ona /koza/ deb ataydi. Ammo o'zbek tilida olmoshlar xam rod tushunchasini aks ettirmay, ya'ni xar uchchala: mujskoy, sredniy va jenskiy roddagi on, ono, ona, olmoshlari xam bitta "u" olmoshiga muvofiq keladi.

Bas, shunday ekan rod ma'nosini aks ettiruvchi olmoshlarni o'zbek tiliga bitta "u" olmoshi bilan tarjima qilish juda qo'pol xatolarga olib kelishi turgan gap. Olmoshni mexanik suratda olmosh bilan almashtirishga intilish qaltis xatolarga olib kelishi mumkin ekan.

Tuzuvchilar ba'zan standart shaklda kirib kelgan narsalarning mutloqo axamiyatsiz va keraksiz ekanligini ta'kidlash uchun noaniqlik tug'dirish maqsadida olmoshdan foydalanadilar. Bunday xollar tarjimada olmoshni olmosh bilan berishga imkoniyat xam, zaruriyat xam bor.

A D A B I Y O T L A R:

- 1) G.Salomov "Tarjima nazariyasiga kirish" Toshkent "O'qituvchi" 1978 yil
- 2) G.Salomov "Til va tarjima" (Badiiy tarjimaning umumfilologik va ba'zi lingvistik masalalari) Toshkent "Fan" 1966 yil.
- 3) O.Jumaniyozov "O'zbek tilidagi german tillari o'zlashmalari" Toshkent "Fan" 1987 yil.
- 4) L.S.Barxudarov "Yazik i perevod" Moskva,1975.
- 5) M.J.Zwilling "Sprache und Übersetzung" M.1982.
- 6) Vladimirova N. Nekotorie voprosi xudojestvennogo perevoda s russkogo na Uzbekskiy yazik. T. Fan. 1957
- 7) Vlaxov F. Florin S. Neperevodimoe v perevode. M. Progress.1978.
- 8) Komilov N.K. Bu qadimiy san'at. T. G'.G'ulom nom. Nashr.1981.
- 9) Musaev K.M. Leksiko-frazeologicheskie voprosi perevoda. T.O'qituvchi 1978.
- 10) Fyodorov A.V. Osnovi obshey teorii perevoda. M. Visshaya shkola 1980.